

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17014093>

KADRLARNI KASBIY FAOLIYATGA JALB ETISH JARAYONINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIDAGI O'RNI

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i,
i.f.d., professor

Usmonov Adxamjon A'zamjonovich,

"International school of finance technology and science" instituti Menejment kafedrasи
mudiri, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada onboardинг jarayonining tashkilot samarali boshqaruvidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xorijiy olimlarning onboardинг tushunchasi bo'yicha tadqiqotlari o'r ganilib, uning mazmun-mohiyati, o'ziga xosligi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: onboardинг, xodimlarni boshqarish, adaptatsiya, samarali boshqaruv, HR menejment.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy boshqaruv tizimi doimiy o'zgarish va rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Texnologik taraqqiyot, raqamlı transformatsiya va sun'iy intellekt kabi omillar tufayli boshqaruvning an'anaviy usullari o'zgarib, yangi yo'nalishlar va tushunchalar shakllanmoqda.

XIX asr sanoat inqilobi bilan boshqaruv tamoyillariga ilmiy yondashuvlar paydo bo'lgan bo'lsa, XXI asr – axborot asri – boshqaruv tizimining yanada kompleks va moslashuvchan bo'lishini talab qilmoqda. Endilikda korxonalar va tashkilotlar innovatsion yondashuvlar, raqamlı boshqaruv, masofaviy ish tizimlari, moslashuvchan yetakchilik kabi yangi tamoyillarga tayanmoqda.

Boshqaruv tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri – inson kapitaliga asoslangan strategiyalar bo'lib, bunda xodimlarning malakasi, ijodkorligi va bilimlari tashkilotning asosiy boyligi sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda kadrlarni ish jarayoniga moslashtirish va faoliyatga jalg etish masalalari menejment nazariyasi hamda amaliyotida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki tashkilotlarda boshqaruv samaradorligini ta'minlashda inson resurslari eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Xodimlarni kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli jalg etish nafaqat mehnat unumdarligini oshiradi, balki tashkilotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadqiqotlar ham bu jarayonning ahamiyatini yaqqol ko'rsatib bermoqda. Jumladan, Brandon Hall Group tomonidan olib borilgan mashhur tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali tashkil etilgan xodimlarni jalg etish va moslashtirish jarayoni yangi xodimlarning tashkilotda qolish darajasini 82 foizga oshirgan. Shuningdek, ularning mehnat unumdarligi 70 foizdan ortiq darajada

yaxshilanganligi qayd etilgan[1]. Ushbu faktlar kadrlarni ish faoliyatiga jalg etish nafaqat inson kapitalidan samarali foydalanishni, balki rahbarlik jarayonining samaradorligini ham oshirishini tasdiqlaydi.

Mazkur jarayonning boshqaruv samaradorligidagi o'rni, birinchi navbatda, xodimlarning kasbiy rolini tez anglab yetishida, ular o'rtasida ijtimoiy-psixologik moslashuvning tezlashuvida hamda tashkilot maqsadlariga sodiqlikni mustahkamlashda namoyon bo'ladi. Boshqaruv amaliyotida bu jarayon ko'pincha xodimlarni tashkilot muhitiga moslashtirish (onboarding) konsepsiysi bilan bog'liq bo'lib, u yangi kadrlarning ish jarayoniga tizimli jalg etilishini ta'minlaydi. Shu sababli, kadrlarni kasbiy faoliyatga jalg etish va onboarding mexanizmlarini chuqur o'rganish boshqaruv tizimida yuqori natijalarni qo'lga kiritish uchun muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Kadrlarni kasbiy faoliyatga jalg etish etishda "Onboarding" jarayoni muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Atama dastlab XX asrning 70-yillarida menejerlar tomonidan xodimlarni ish muhitiga moslashtirish va tashkilot madaniyatiga singdirish jarayonini ifodalash uchun qo'llanila boshlagan. Keyinchalik u inson resurslarini boshqarish jarayonida keng tadqiq etilib, xodimlarning kasbiy faoliyatga tezkor integratsiyasini ta'minlovchi samarali mexanizmlardan biri sifatida shakllangan. "Onboarding" so'zi ingliz tilidagi "on board" iborasidan kelib chiqqan bo'lib, so'zmaso'z tarjima qilinganda "kemaga chiqish" yoki "bortda bo'lish" degan ma'noni anglatadi[2]. Bu tushunchaning kelib chiqishi esa qaroqchilar kemasi yoki samolyot jamoasi bilan bevosita bog'liq. Chunki ekipaj yoki qaroqchilar o'ziga xos qoidalarga qat'iy amal qiladi. Yangi odamni ushbu jamoaga qo'shish esa uni "bortda bo'lish" degan ma'noni anglatib, unga barcha muhim jihatlarni tushuntirishni talab qiladi. Natijada yangi a'zo jamoaning ichki tartib-qoidalari, vazifalari va umumiy maqsadlarini tushunib, tezda o'z o'rnini topadi hamda jamoa bilan samarali hamkorlik qila boshlaydi. Ushbu jarayonni, o'zbek tilidagi "Kemaga tushganni joni bir" maqoli bilan bog'lagan holda kemani yangi a'zo xatosi evaziga kema cho'ktirib yubormasligi uchun tartib-intizomni tushuntirilgan. Bu orqali yangi jamoa a'zosi o'zni qulay his qilishi va moslashishiga yordam berilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy menejment nazariyasi, inson resurslarini boshqarish konsepsiyalari hamda xalqaro tajribada qo'llaniladigan empirik yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqotda kadrlarni kasbiy faoliyatga jalg etish jarayonining boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlash uchun miqdoriy va sifatli usullar uyg'unlashtirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy manbalarda onboarding tushunchasi turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, umumiy mazmunda u yangi xodimlarni tashkilotga tizimli ravishda integratsiya qilish, zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash hamda ularni faol va samarali jamoa a'zolariga aylantirish jarayoni sifatida izohlanadi. D. Lee onboardingni xodimlarning kasbiy vazifalarni samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan resurslar va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Bu yondashuv kadrlarni tayyorlash va ularning tashkilotga tezroq moslashuvini jadallashtirishda muhim omil sifatida

qaraladi[3].

Krasman esa onboardingni xodimlarning o‘z jamoasi, bo‘limi va butun tashkilot doirasida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va xulq-atvorni egallash jarayoni sifatida tavsiflaydi. Muallif ta’kidlashicha, bu jarayon uzoq muddatli kadrlarni saqlab qolishga, yangi xodimlarning unumдорligini tezkor oshirishga va ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtirishga yordam beradi[4].

Chillakuri olib borgan tadqiqotlarda esa samarali yo‘naltirish dasturlari xodimlarning ishonchini mustahkamlashi, ularning to‘liq samaradorlikka tezroq erishishini ta’minalashi va ijobiy ish beruvchi–xodim munosabatini shakllantirishini ta’kidlaydi. Bu yondashuv onboarding jarayonining nafaqat kasbiy, balki psixologik ahamiyatini ham ko‘rsatadi[5].

Sharma va Stol esa yaxshi loyihalashtirilgan onboarding dasturlari yangi xodimlarning o‘zini qulay his etishi, vazifalarini aniqroq tushunishi va tashkilot madaniyatiga moslashishini osonlashtirishini qayd etadi. Bu esa tashkilotning umumiy boshqaruv samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[6].

V. Oglomin va A. Datskolar onboarding tushunchasini yangi xodim kompaniyaning korporativ, ijtimoiy va ish muhitiga qulay moslashishi va samarali integratsiyasini ta’minalaydigan vositalar majmuasi sifatida ta’riflaydilar[7]. Talya Bauerning fikricha, yaxshi tashkil etilgan onboarding jarayoni yangi xodimlarning ishdan qoniqishini oshirib, tashkilotda qolish ehtimolini ko‘paytirsa[8], Michael Watkinsga ko‘ra yangi xodimlarning dastlabki 90 kunini samarali boshqarish orqali ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minalash mumkinligini ta’kidlaydi[9].

Saks va Belcourt onboardingni kompaniyaning strategik xodimlar boshqaruvi tizimining ajralmas qismi sifatida ko‘rib, yangi xodimlarning mahorati va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘ta muhim ekanligini, tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tahlil qiladi[10]. Klein va Polinlar onboarding jarayonida mentorlik rolini alohida ta’kidlab, yangi xodimlarni tashkilotning missiya va qadriyatlari bilan tanishtirishda asosiy omil ekanini, muvaffaqiyatli integratsiyani ta’minalashga xizmat qilishini aytib o‘tadi[11]. Bendix esa onboarding jarayonini kompaniyada yangi xodimlarning uzoq muddat qolishiga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida ko‘rib, ish samaradorligi o‘sishi va barqarorligi ta’minalishida muhimligini qayd etadi[12].

Demak, yuqoridaq olimlarning fikridan bilishimiz mumkinki, onboarding faqatgina yangi xodimlarni ish muhitiga moslashtirish vositasi emas, balki tashkilotning umumiy natijadorligini oshirishga xizmat qiladigan strategik boshqaruv instrumentlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Bu jarayon xodimlarni boshqarish tizimida eng muhim bosqichlardan biri ekanligi, yangi xodimlarni ish joyiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish dolzarb vazifa ekanligini anglatadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

2010-yilda Portland davlat universitetining Biznes maktabi professori Talya Bauer tomonidan onboardingning 4C modeli ishlab chiqilgan. Bu modeli yangi xodimlarni tashkilotga muvaffaqiyatli integratsiya qilishning samarali usuli bo‘lib, uning yordamida yangi xodimlarning qisqa muddatlarda moslashishini, ish samaradorligining oshirishini, tashkilotga sodiqligining mustahkamlashini ta’minalash

mumkin. Ushbu model 4 ta inglizcha so‘zlarning bosh harfidan olingan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Muvofiqlik (Compliance). Yangi xodimlarni kompaniyaning siyosati, qoidalari va huquqiy talablariga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda yangi ishchilarga mehnat shartnomalari, kompaniya siyosati, xavfsizlik, ish tartibi va boshqa qoidalalar tushuntiriladi.

2. Aniqlik (Clarification). Xodimning o‘z vazifalari va majburiyatları bo‘yicha to‘liq tushuncha olishini ta’minlaydi. Bu bosqich ish jarayonidagi aniqlik va tushunmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

3. Madaniyat (Culture). Kompaniya qadriyatları, missiyasi, ish uslubi va muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishni nazarda tutadi. Madaniyat elementi yangi ishchiga tashkilotning umumiyo yo‘nalishini tushunishga yordam beradi.

4. Aloqa (Connection). Jamoadagi boshqa xodimlar bilan ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu bosqich yangi ishchilarning o‘zlarini jamoaning bir qismi sifatida his qilishlari uchun muhimdir. Jamoaviy uchrashuvlar va norasmiy tadbirlar o‘tkaziladi hamda mentorlik tizimi orqali yangi xodimga yordam beriladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kompaniyalarda samarali onboarding tizimi joriy etilganda, yangi xodimlarning motivatsiyasi ortadi, ularning ishga jalb etilish darajasi yuqori bo‘ladi va ish joyidagi barqarorlik ta’minlanadi. Tahlillarga ko‘ra, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan onboarding jarayoni tashkilotda xodimlarni ushlab qolish ko‘rsatkichlarini 50% gacha oshirishga, ish samaradorligini esa 25% gacha yaxshilashga yordam beradi. Biroq, ko‘plab korxonalarda onboarding jarayoni faqat hujjatlarni rasmiylashtirish va dastlabki ko‘rsatmalar berish bilan cheklanadi, natijada yangi xodimlar o‘zlarini tashlab qo‘yilgandek his qilishadi va qisqa vaqt ichida ish joyini tark etish ehtimoli oshadi. Xodimlar o‘rtasidagi muloqot, kompaniya madaniyati bilan tanishtirish va dastlabki kunlardagi qo‘llab-quvvatlash yetarlicha yo‘lga qo‘yilmasa, bu jarayon samarasiz bo‘lib qoladi.

Zamonaviy boshqaruvda tashkilot xodimlarining qo‘nimsizlik darajasining ortishi ish samaradorligiga va korxona barqarorligiga jiddiy xavf sifatida qaraladi. Global raqobatning kuchayishi, malakali kadrlarning yetishmasligi va xodimlarning ish joyini tez-tez almashtirishi sababli kompaniyalar yangi kadrlarni qisqa vaqt ichida samarali ravishda jalb qilish va ularni saqlab qolish uchun innovatsion yondashuvlardan foydalanishga majbur. Chunki tashkilot xodimlarsiz muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Xodimlarning samaradorligi, ishga intilishi va sodiqligi tashkilotning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yangi xodimlarni ishga olish va ularni qisqa fursatlarda ish jarayoniga jalb etish murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, unda onboarding tizimi muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘plab tashkilotlarda onboarding va adaptatsiya jarayonini bir-birirga sinonim so‘zlar sifatida qo‘llashadi. Lekin ular o‘rtasida bir qancha farqlar mavjud. Mazkur tafovutlarni 1-jadvalda batafsil ko‘rish mumkin.

1-jadval

Onboarding va adaptatsiya jarayonlarining farqlari

T/r	Mezon	Onboarding	Adaptatsiya
1.	Ta’rif	Yangi xodimni ish jarayoniga tez va	Yangi xodimning ish muhitiga

		samarali jalb qilish, uni tashkilot madaniyatiga integratsiya qilish jarayoni.	moslashishi va o‘zini qulay his qilish jarayoni.
2.	Maqsadi	Xodimga dastlabki kunlardan boshlab kerakli ma’lumot va resurslarni berish, jamoaga tez qo’shish.	Xodimga yangi muhitga moslashishi uchun vaqt berish, uning ichki jarayonlarga asta-sekin kirishishini ta’minlash.
3.	Davomiyligi	Odatda 1-3 oy, ba’zi tashkilotlarda 6 oy yoki 1 yilgacha davom etishi mumkin.	Uzoqroq muddat talab etadi va tabiiy jarayon sifatida kechadi.
4.	Bosqichlari	1) Tayyorgarlik, 2) Birinchi kun, 3) Birinchi hafta, 4) Uzoq muddatli qo’llab-quvvatlash.	1) Ishga o‘rganish, 2) Jamoaga moslashish, 3) Ish unumdarligini oshirish.
5.	Yondashuv	Rasmiy (treninglar, mentorlik, hujjatlar, yo‘riqnoma, texnik ta’minot) va norasmiy (jamoaviy tadbirlar, suhbatlar).	Ko‘proq tabiiy jarayon bo‘lib, xodimning individualligiga bog‘liq holda kechadi.
6.	Natija	Xodim tezroq moslashadi, tashkilotning madaniyati va ish jarayonlariga chuqurroq kirib boradi.	Xodim asta-sekin yangi ish sharoitiga o‘rganib boradi, biroq jarayon uzoqroq davom etishi mumkin.

1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, onboarding yangi xodimni tezroq va samarali ishga jalb qilish uchun rejlashtirilgan tizimli jarayon bo‘lsa, adaptatsiya esa tabiiy moslashuv jarayoni bo‘lib, onboardingga qaraganda uzoqroq davom etishi va shaxsiy tajribaga ko‘proq bog‘liq bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Onboarding jarayoni tashkilot faoliyatida shunchaki tashkiliy tadbir emas, balki samarali boshqaruvi tizimini shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta’minlovchi muhim strategik omil sifatida qaralishi lozim. Ushbu jarayon yangi xodimlarning kasbiy faoliyatga tez moslashuvini ta’minlash, ularni tashkilot maqsadlari, qadriyatlari va madaniyati bilan tanishtirish orqali ularning motivatsiyasi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada xodimlar o‘zlarini jamoaning to‘laqonli a’zosi sifatida his qiladilar, bu esa ularning sadoqatini kuchaytirib, kadrlar almashinuv darajasini sezilarli darajada kamaytiradi.

Samarali onboarding tizimi tashkilotning ichki muhitida hamkorlik va o‘zaro ishonchni rivojlantiradi, xodimlar o‘rtasidagi ijobiy aloqalarni mustahkamlaydi hamda umumiyligi unumdarligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ilg‘or HR amaliyotlaridan foydalanish jarayonni yanada samarali, izchil va shaffof qiladi.

Umuman olganda, kuchli va tizimli onboarding strategiyasi tashkilotning raqobatbardoshligini saqlab qolish, inson resurslaridan oqilona foydalanish va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, rahbarlar va HR mutaxassislari onboarding jarayonini doimiy takomillashtirish, uni global tajribalar va milliy xususiyatlarga mos holda yanada samarali qilish ustida ishlashlari zarur. Zero, yangi xodimni to‘g‘ri qabul qilish va kasbiy faoliyatga jalb etish kompaniyaning umumiyligi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kadrlarni kasbiy faoliyatga jalg etish jarayoni samarali tashkil etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, yangi xodimlarni kasbiy faoliyatga jalg etishda dastlabki tanishtirish (onboarding) jarayonini korporativ standart sifatida joriy etish zarur. Bu orqali kadrlar tezroq ish jarayoniga moslashadi hamda tashkilotning qadriyatlari va strategik maqsadlarini chuqurroq anglaydi.

Ikkinchidan, yangi ishga qabul qilingan xodimlarga tajribali mutaxassislarini biriktirish samarali bo‘ladi. Bu usul ularning kasbiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi, bilim almashishni kuchaytiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, maxsus onlayn platformalar, elektron qo‘llanmalar va trening modullaridan foydalanish lozim. Bunday yondashuv nafaqat vaqt va resurslarni tejaydi, balki jarayonning shaffof va izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, onboarding jarayonida yangi kadrlarni tashkilotning missiyasi, qadriyatlari va uzoq muddatli maqsadlari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu ularning motivatsiyasini oshirib, boshqaruv samaradorligiga qo‘sghan hissasini kuchaytiradi.

Beshinchidan, yangi xodimlar uchun kasbiy faoliyatga moslashtirilgan individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat faoliyatga jalg etishda, balki xodimlarning salohiyatini to‘liq ochishda ham muhim omil hisoblanadi.

Oltinchidan, onboarding jarayonida xodimlarning fikr-mulohazalarini muntazam yig‘ib borish va mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish lozim. Bu orqali rahbariyat jarayonni yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yettinchidan, kasbiy faoliyatga jalg qilishda faqatgina amaliy ko‘nikmalar emas, balki psixologik moslashuv ham qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Buning uchun ijtimoiy tadbirlar, jamoaviy treninglar va motivatsion dasturlar samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lau G. 25 Surprising Employee Onboarding Statistics in 2025 [Elektron resurs] // StrongDM – 2025. – URL: <https://www.strongdm.com/blog/employee-onboarding-statistics>
2. Сапранкова, Т.А., Фирсова Н.В. Система онбординга как новый элемент в парадигме управления персоналом // Бизнес-образование в экономике знаний. – 2020. – № 3(17). – С. 122-125.
3. Lee D. Successful Onboarding: How to Get Your New Employees Started Off Right [Elektron resurs]: – 2006. – URL: <https://trhrd.wordpress.com/wp-content/uploads/2006/10/successfulonboarding.pdf>
4. Krasman M. Three must-have onboarding elements for new and relocated employees // Employment Relations Today. – 2015. – № 1. – B. 9–14.
5. Chillakuri B. Understanding Generation Z expectations for effective onboarding // Journal of Organizational Change Management. – 2020. – T. 33, № 7. – B. 1277–1296.
6. Sharma G.G. Stol K. J. Exploring onboarding success, organizational fit, and turnover intention of software professionals [Elektron resurs] // Journal of Systems and Software: – 2020
7. Оглоблин В. А., Дацко А. Е. Понятие онбординга и его применение при

адаптации молодых специалистов // Экономика и бизнес: теория и практика. 2023. №6-2 (100).

8. Bauer T. N. Onboarding New Employees: Maximizing Success. SHRM Foundation. 2010 // <https://www.shrm.org/foundation/ourwork/initiatives/resources-from-past-initiatives/Documents/Onboarding%20New%20Employees.pdf>

9. Watkins, M. The First 90 Days: Proven Strategies for Getting Up to Speed Faster and Smarter. Harvard Business Review Press. 2013. – P.304

10. Saks, A. M., & Gruman, J. A. What Do We Know About Employee Engagement? Human Resource Development Quarterly, 25(2), 2014. – P.155-182.

11. Klein, H. J., Polin, B., & Sutton, K. L. Specific Onboarding Practices for the Socialization of New Employees. International Journal of Selection and Assessment, 23(3), 2015. – P.263–283

12. Bendix R. Work and Authority in Industry: Managerial Ideologies in the Course of Industrialization. 1st Edition. Routledge. 2001. – P.464